

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
NEMIS FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

**FONETIKA VA FONOLOGIYA FANLARINING TARG‘IBOTCHISI,  
FILOLOGIYA FANLARI NOMZODI, PROFESSOR  
ZIYOVUDDIN TOSHOV  
tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlangan**

**“HOZIRGI GLOBALASHUV DAVRIDA  
FONETIKA VA FONOLOGIYANING  
DOLZARB MUAMMOLARI”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman**

**20-oktyabr 2023-yil**

**Buxoro – 2023**

Hozirgi globallashuv davrida fonetika va fonologiyaning dolzarb muammolari [Матн] D.H.Karimova - Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdoni, 2023. - 328 b.

Mazkur to'plamda Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari nomzodi Toshov Ziyovuddin Badridinovichning 80 yillik hayoti va 57 yillik ilmiy faoliyati hamda 100 dan ortiq mamlakatimiz va xorijiy filolog-olimlari, olimning hamkasblari, shogirdlari, do'stlari va qarindoshlari tomonidan bildirgan fikr-mulohazalari va dil izhorlari bayon qilingan.

To'plam pedagogik va ilm-fan xodimlari, yosh ilmiy izlanuvchilar va boshqa kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:**

Professor S.S.Saidov

**To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar:**

f.f.f.d. (PhD) D.H. Karimova

f.f.f.d. (PhD) M.M. Maxmudova

**Taqrizchilar:**

f.f.d. (DSC), dotsent Z.I.Rasulov

f.f.d. (DSc), professor D.H.Quvvatova

f.f.f.d. (PhD), dotsent Y.B. Ro'ziyev

fikrlash jarayonini osonlashtirishdir. Garchi ular axborot ombori bo'lib xizmat qilsa-da, ularni xotira birliklari sifatida qat'iy tasniflash mumkinmi, degan savol qo'shimcha o'rganish va dalillarni talab qiladi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Lixachev D.S. Kontseptosfera russkogo yazika. Izv. 1993, №1.-S. 3-9.
2. Kubryakova Ye.S. Yazikovoie soznanie i yazikovaya kartina mira. Filologiya i kultura. Materiali mejdunarodnoy konferentsii. Chast 1. – Tambov, 1999. – S. 6-13.
3. Stepanov Yu.S. Konstanti. Slovar russkoy kulturi. – M., 1997. – 412 s.
4. Kolesov V.V. Yazik i mentalnost. – SPb, 2004. – 196 s. – S. 19-20.
5. Karasik V. I. Yazikovoy krug: lichnost, kontsepti, diskurs. – M., 2004. – 389 s. – S. 71, 128, 361.
6. Pimenova M. V. Tipologiya strukturnix elementov konseptov vnutrennego mira (na primere emotsionalnix konseptov). Voprosi kognitivnoy lingvistiki. 20046. – № 1. – S. 83-90.

### TERMIN VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

F. S. Nasimova

#### BuxDU Xorijiy tillar fakulteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada termin haqida tushuncha, uning so'z va nom munosabati hamda funksiyalari to'g'risidagi nazariy qarashlar ochib berildi. Tilshunoslikda so'z, atama uning semantik-struktur xususiyatlarini chuqur tadqiq etish munosabatlari tahlil qilindi.*

**Kalit so'zlar:** *tilshunoslik, atama, termin, so'z, nom, determinologizatsiyalash, terminologik ma'no, umumiste'moldagi so'z, obrazli so'z, badiiy so'z.*

Termin (lotincha terminus - chegara, chek so'zidan) gapdan tashqarida olinganda ham aniq bir ma'no ifodalaydigan so'z yoki turg'un holatdagi so'z birikmasidir. Uning asl lug'aviy ma'nosi ham shuni anglatadi. Demak, termin hamma so'zlar singari so'z bo'lib, u ham ma'lum bir mustaqil tushuncha anglatadi va bir yoki bir necha nutq tovushining birikishidan iborat bo'lgan bir vosita hisoblanadi.

Bitta soha doirasidagi terminlar terminotizimni tashkil qiladi. Terminlar fanning metatili va ilmiy tadqiqotlarning, shuningdek, insonning amaliy faoliyati sohalarining o'ziga xos voqeligini anglatuvchi so'zlar (iboralar) sifatida belgilanishi mumkin. Ko'pgina hollarda, olimlar tomonidan "nomenklatura" atamasi ishlatiladi. Bu ikki tushuncha o'zaro farqlanmasdan qo'llanadi. Shuning uchun ushbu o'rinda yo'l-yo'lakay nomenklaturaga ham munosabat bildirishga to'g'ri keladi. Nomenklatura (lot. Nomenclatura ro'yxat) – ilm-fanning turdosh (tipik) obyektlarining nomi. Agar termin umumiy tushunchani ifodalasa, nomenklatura xususiy tushunchani ifodalaydi<sup>1</sup>. Masalan, ta'lim muassasalari turlari, o'quv-didaktik jihoz va shu kabilar nomlari nomenklaturalardir. Bundan kelib chiqadiki, terminlar, masalan, formulalar, turli xil matematik va ramziy ifodalar, shubhasiz, tegishli fanlarning metatiliga kiritilgan, ammo tabiiy tilning butun lug'at tarkibiga kiritilmaydi. Biroq, ayrim belgilar ham termin sifatida kiritilishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, metatil va terminologiya sinonim bo'la olmaydi. Ko'pgina terminlar tegishli terminotizimlar orqali tilning lug'at tarkibiga kiritilgan.

Ingliz faylasuflarining fikricha, «mantiqda tushunchalar haqida emas, atamalar, nomlar yoki terminlar haqida gapirish maqsadga muvofiqdir». G.I.Chelpanovning fikricha, rus tilidagi *красивый, делимый, конечный, некрасивый, неделимый, бесконечный* so'zlari ijobiy (положительный) va salbiy (отрицательный) terminlardir<sup>2</sup>.

Demak, mantiqshunos uchun termin – mantiqiy muhokama elementi bo'lib, uning faqat ot bilan ifodalanishi shart emas. Ammo tilshunos termini bu xilda tushunmasligi kerak.

<sup>1</sup> Суперанская А. В. Терминология и номенклатура / А. В. Суперанская // Проблематика определений терминов в словарях разных типов. – Л.: Наука, 1976. – С. 73–78.

<sup>2</sup> Челпанов Г.И. Учебник логики. - М., 1946. – С.8.

Tilshunoslikda hamma atamalarni, shu jumladan, odatdagi sifatlarni ham terminga kiritish terminning doirasini asossiz ravishda kengaytirib yuborish bo'lar edi. Hozirgi mantiqshunoslar terminni bu xilda keng ma'noda, ya'ni so'z ma'nosida qo'llamaydilar.

Termin – so'zlarning bir xili, ammo hamma otlar (ayniqsa, sifatlarni) ham termin hisoblanmasligi lozim. Terminlarning maxsus termin ekanligi o'zi qo'llanayotgan sohada yaqqol ko'zga tashlanadi. U bu tizimdan boshqa tizimga o'sha oddiy so'zga aylanadi. Shu sababli ham M.Mukarramov «bo'g'in» so'zi tilshunoslikda, ya'ni fonetikada termin, «yosh bo'g'in», «qo'l bo'g'inlari» birikmalarida inson tanasining a'zolari sifatida ekanligini ta'kidlaydi.

G.O.Vinokur terminning atash ma'nosi xususida shunday yozadi: «terminlar – bu maxsus so'zlar emas, faqatgina maxsus funktsiya bajaradigan so'zlardir». Akademik V.V.Vinogradov fikricha: bu funktsiya definitiv funktsiya deb ataladi, ya'ni «terminning umumqo'llanishdagi so'zdan farqi unda definitiv funktsiyaning mavjudligidir, chunki termin ortida predmet, narsa, hodisaning emas, balki faqatgina «mantiqiy ta'rif» turadi. A.I.Moiseyeva esa quyidagicha ta'kidlaydi: definitiv funktsiyani terminning xususiyati sifatida tan olish mumkin emas: «termin tushunchani aniqlamaydi va aniqlay olmaydi. Bu mantiqiy definitiyaning vazifasidir. Termin – ot va uning asosida yuzaga kelgan so'z hamda birikmalardan tashkil topgan, nominativ funktsiya bajaradigan muayyan tip».

V.M.Leychik yozadi: terminga so'zning quyidagi asosiy funktsiyalari xos: nominativlik, signifikativlik, kommunikativlik, pragmatiklik<sup>1</sup>.

Nominativlik – (lot. nomination – atash, nom qo'yish) tilda nomlash vazifasini bajaruvchi birliklarni (so'z, so'z birikmasi kabilarni) hosil qilish.

Signifikativlik – (log. significativus – ishora etuvchi, ayon etuvchi) – til birligini ifodalash va farqlash vazifasi.

Kommunikativlik – tilning aloqa-aralashuv vositasi sifatidagi asosiy vazifasi.

Pragmatiklik – so'zlovchining voqelikka, axborot mazmuniga va adresatga (tinglovchi, o'quvchi) bo'lgan munosabatining lisoniy birlik mazmunidan joy olgan ta'sirchanlik kuchini aniqlash vazifasi. Demak, ma'no borliqdagi predmetni aks ettiradi, terminning moddiy tomoni esa predmetning ishorasi bo'lib xizmat qiladi. Ma'no asosida tushuncha shakllanadi, terminning moddiy qobig'i orqali tushuncha aks ettiriladi, ifodalanadi va u tushunchaning ishorasi deb qaraladi.

Terminologiya bo'yicha eng muhim ishlardan biri bu V.Leychikning «Terminologiya: predmeti, usullari, tuzilishi» tadqiqotidir, unda asosiy terminologiya asarlari, atamaning turli ta'riflari, atamaning mazmunli va rasmiy tuzilishi tahlil qilingan. Terminlarning tipologiyasi va tasnifi, terminologiyada qo'llaniladigan asosiy usullar. Terminlarni noto'g'ri ishlatish, tamoyillarni bilmaslik terminologik tizimlarning tashkil etilishi va ishlashi inson faoliyatining barcha sohalarida aloqa buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, XX - XXI asr boshlari deb bahslashish mumkin. Bu turli terminologik tizimlarning rivojlanishida, terminologiyaning tegishli lingvistik, falsafiy va amaliy nazariy muammolarini ishlab chiqishda noyob davr sifatida e'tirof etiladi.

Terminlarning kattagina qismi umumiste'mol so'zlarni metaforizatsiya qilish yo'li bilan hosil qilingan. Termin yasashning bu usuli keng tarqalgani sabablari metaforizatsiyaning asosiy xarakterli xususiyatlari va terminning xos belgilari qiyoslashganda namoyon bo'ladi: terminda uning nominativ funktsiyasi alohida ta'kidlansa, metaforizatsiya deb nomlash jarayonini amalga oshiradi; terminning asosiy xususiyatlaridan biri uning bir ma'noliligi-metaforizatsiya yordamida voqelanadigan ma'no semasiologik nuqtai nazardan bir planlidir; termin emotsional neytral, chunki metaforizatsiyada baholash unsuri bo'lmaydi.

Nomlarning funksional ko'chishi shundan iboratki, u yoki bu predmet yoxud hodisaning nomi ular funktsiyalarining umumiyligi asosida boshqa predmet yoki hodisaga o'tadi.

Asos qilib olingan so'z va undan yasalgan termin orasidagi funksional o'xshashlik nafaqat yangi predmet yoki hodisa nomlanayotganda, balki umumiste'mol so'z va termin mavjud bo'lgan

<sup>1</sup> Лейчик В.М., Шелов С. Д. Российское терминоведение: опыт синтеза «старой» и «новой» парадигмы / Научно-техническая терминология. – М., 2004. – Вып. 1. – С. 45-48.

va qo‘llangan paytda ham saqlanib qoladi. Bu leksik-semantik terminlar ma’nolari orasidagi aloqa faqat etimologik xarakterda bo‘lmaydi. Ular orasida funksional aloqa ham saqlanib qoladi. Shu bilan birga, terminologik ma’no umumiste’ moldagi so‘z taraqqiyotining izchil tarixiy bosqichini o‘zida namoyon etadi<sup>1</sup>.

#### ADABIYOTLAR:

1. Лейчик В.М., Шелов С. Д. Российское терминоведение: опыт синтеза «старой» и «новой» парадигмы / Научно-техническая терминология. – М., 2004. – Вып. 1. – С. 45-48.
2. Рустамова, Ф. (2022). ПОНЯТИЕ ТЕРМИНА В ЯЗЫКЕ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu.Uz), 8(8). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/4711](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4711)
3. Суперанская А. В. Терминология и номенклатура / А. В. Суперанская // Проблематика определений терминов в словарях разных типов. – Л.: Наука, 1976. – С. 73–78.
4. Челпанов Г.И. Учебник логики. - М., 1946. – С.8.
5. A.Pardayev, D.V.Urinbayeva, D.A.Islamova. O‘zbek terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Samarqand – 2020.
6. Vobokalonov, O. (2022). ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ФРАНЦУЗСКО-УЗБЕКСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu.Uz), 7(7). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/4780](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4780)
7. G.Hojieva. Linguvoculary Properties Of Art Terms (On The Example Of French And Uzbek Languages) - 2021
8. Lotte, D. S. Uporyadocheniye texnicheskoy terminologii // В. А. Tatarinov. Istoriya otechestvennogo terminovedeniya. Klassiki terminovedeniya: Oчерk i xrestomatiy. - М.: Moskovskiy Litsey, 1994.S.74
9. N.B Kuldashova, M.X Xamidova. - The importance of terminology in linguistics Scientific reports of Bukhara ..., 2020
10. Saidova A.D. Terminologiya sistemasining definitsiya talqini (ingliz tili misolida). Falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD) avtoreferati. – Samarqand, -2019.24 b.

### THE ROLE OF TRANSLATION MISTAKE IN TEACHING INTERPRETATION

**K.H. Saitova**

**Bukhara engineering-technological institute, docent**

In our everyday and professional consciousness, an error, as a rule, is considered as the result of some kind of mistake, unsuccessful activity in some area, that is, as a negative experience. Nevertheless, human activity is ontologically inseparable from faults: “It is human nature to make mistakes,” we say every time in our excuse when we are wrong. The expression “learn from mistakes” allows us to assume that any error includes a positive component - it gives impulse to reconsider or correct our behavior/activities.

The purpose of this article is to try to show what the role of translation errors is in teaching translation in general, and focus on the positive aspects of a mistake made by the future translator during educational interpretation.

The reason that makes you turn to studying this issue is due to a number of both objective and subjective factors.

Firstly, as a translation teacher, we know not by hearsay that at university translation education, due attention is not often paid to students’ errors. As a rule, the translation teacher is busy teaching the student to translate, that is, he concentrates on practicing translation techniques, explaining optimal translation methods, searching for solutions. All his corrections come down to giving a

---

<sup>1</sup> Saidova A.D. Terminologiya sistemasining definitsiya talqini (ingliz tili misolida). Falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD) avtoreferati. – Samarqand, -2019.24 b.

<b>III BO'LIM. ILMIY ANJUMAN MATERIALLARI.....</b>	<b>74</b>
<b>I sho'ba. Zamonaviy fonetika va fonologiyaning dolzarb masalalari .....</b>	<b>74</b>
Хуррам Рахимов. Фикрлашга ўргатайлик.....	74
Saydaliyev Saidumar. Fonetika darsida xatolar ustida ishlash.....	76
Alimova M.X., Мамадалиев А.М. ЧЕТ ТИЛ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР АҲАМИЯТИ.....	79
Ismailov Yusuf. FONOLOGIK KOMPETENSIYA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANING TARKIBIY QISMI SIFATIDA .....	84
Тошов Зиявуддин Бадриддинович. ФОНОСТИЛИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ.....	86
Шухратхон Имяминова. ТОВУШ ИЛМИНИНГ ДАРҒАСИ .....	89
Тошов З.Б., Ҳайдаров А.А. О ФЕНОМЕНЕ ПАУЗЫ В СПОНТАННОЙ МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ.....	91
Расулов Зубайдулло Изомович, Саидов Хайрулло Шавкатович. ПРИНЦИПЫ ЭКОНОМИИ ФОНАЦИОННОЙ ЭНЕРГИИ.....	96
Babayev Maxmud Tashpulatovich. TALAFFUZ LUG'ATLARI YARATISHDA XALQARO FONETIK ALIFBO (IPA)DAN FOYDALANISH MUAMMOLARI.....	98
Mahmudov Alisher Yo'ldoshevich, Homidova Nafisa Ramazon qizi. NEMIS TILI PROSODIKASIDA SUPERSEGMENTAL MASALALAR TAHLILI.....	101
<b>II sho'ba. Qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslikning dolzarb muammolari .....</b>	<b>103</b>
M.Begmatov. ILOVA KONSTRUKSIYA SINTAKTIK ALOQANING USLUBIY VOSITASI SIFATIDA.....	103
З.Жуманиёзов. НЕМИСЧА-ЎЗБЕКЧА ЛУҒАТЛАРДА СОҒ ДИПЛОМАТИК ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕРИЛИШИ.....	105
Жўраева Малоҳат Муҳаммадовна. КОГНИТИВ ТИЛШУНОСЛИКДА «КОНЦЕПТ», «ФРЕЙМ» ВА «ГЕШТАЛЬТ» ТУШУНЧАЛАРИ ТЎҒРИСИДА МУЛОҲАЗАЛАР.....	107
Найимов Сади Нарзиевич. НОМШУНОСЛИК СОҲАСИНИНГ ТЕКШИРИШ ОБЪЕКТИ .....	111
I.Mamasoliyev. MATNNI HOSIL QILUVCHI BIRLIKLAR TARKIBIDAGI ILOVALI ELEMENTLAR .....	114
Ro'ziev Y.B. VILHELM FON HUMBOLT TA'LIMOTIDA RUHIY QUVVAT BILAN TILNING O'ZARO MUNOSABATI MASALASI.....	116
Xamidova M.H. KALENDAR QANDAY PAYDO BO'LGAN? .....	119
Sh. Imyaminova. NEMIS TILIDAGI MATNLARDA FRAZELOGIZMLARNING STILISTIK FUNKSIYASI.....	122
Y.B. Ro'ziyev, Z.S.Qosimova. O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA TINISH BELGILARINING QO'LLANISHIGA OID.....	125
D.H. Karimova. DAS WESEN UND DIE BESONDERHEITEN DER KONZEPTE DER VARIABILITÄT UND INVARIANZ IN DER ÜBERSETZUNG.....	127
Y.B. Ruziev, Sh. Halimova. DIE SEMANTISCHE FUNKTION DES VOLLVERBS IM USBEKISCHEN .....	130
Жўраева Мақсуда Муҳаммадовна. ЁЗМА МАТБУОТ ЖУРНАЛИСТЛАРИ ҲАҚИДА.....	132
G. M. Abishova. NEMIS TILIDAGI DATIV BILAN AKKUZATIV KELISHIGINING QORAQALPOQ TILIDA BERILISHI .....	135
Д.У. Бердимуратов. Семантико-стилистический анализ концептуально маркированной фразеогруппы (на материале толкового словаря немецкого языка).....	136
Xamidova Muborak Hafizovna. TAQVIM: O'TMISH VA HOZIR .....	138
Каримова Дилафрўз Ҳалимовна, Нарзиева Дилфуза. АКА-УКА ГРИММ ЭРТАКЛАРИНИНГ ЯРАТИЛИШ ТАРИХИ ВА ЎЗБЕКЧА ТАРЖИМАЛАРИ ХУСУСИДА .....	139
M.T. Babayev, M.M. Atadjanova. "LUG'AT – TARJIMONNING ASOSIY QUROLI" .....	142
A.P.Rahmatov. EINIGE GRUNDLEGENDE MERKMALE DER TEMPUSKATEGORIE IM USBEKISCHEN .....	144
Марупова Гульноз Умарджоновна. ТИПОЛОГИЯ И КЛАССИФИКАЦИЯ ТУРИЗМА.....	147
M.N. Boltayeva. GEOGRAFIK HAQIQATLAR .....	149
M.F. Furqatova. JADIDCHILIK HARAKATI VA MILLIY TIL RIVOJI MUAMMOLARI .....	151
G. S. Azamatova. O'zbek va nemis tillari otlarning grammatik kategoriyalari .....	153

R.Sh. Bozorova, S. Zikirov. YO HANN VOLFGANG GYOTE ASARLARIDA GIDROPOETONIMLAR O'RNI.....	155
S.T.Matmurotova, R.Q.Axmedova. FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI TURG'UN IBORALARNING O'XSHASH VA FARQ QILADIGAN TOMONLARI.....	158
N.M. Nazarova. "KONSEPT" TUSHUNCHASIDA LINGVISTIK MA'LUMOTLAR.....	159
F. S. Nasimova. TERMIN VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	161
K.H. Saitova. THE ROLE OF TRANSLATION MISTAKE IN TEACHING INTERPRETATION.....	163
M.C. Мирханова. АНГЛИЙСКИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ..	165
E.B. Jumayev, G.X. Nurullayeva. NEMIS TILIDA SHAXS IFODASI.....	166
N.T. Tabisxanov. Die Adjektive im Werk „Kabale und Liebe“ von F.Schiller.....	168
Xaitova Gulshan Bahadirovna, Kamolova Sitora. O'ZLASHTIRMA GAP VA UNING O'ZGA GAP DOIRASIDA TUTGAN O'RNI.....	170
G.K. Хожаметова. Построение предложения в английском языке.....	173
G.K. Хожаметова. Методико-лингвистические принципы анализа фразеологической деривации в английском языке.....	175
M.A. Кучиев. ИЛОВАЛИ ЭЛЕМЕНТЛАР СИФАТИДА ҚЎЛЛАНГАН ФРАЗЕОЛОГИЗМ ВА БАДИИЙ ТАСВИР ВОСИТАЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС СТИЛИСТИК ВАЗИФАЛАРИ.....	177
Badalov Feruz Nuriddinovich. NEMIS TILIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING ONLAYN AXBOROT NASHRLARIDAGI TUTGAN O'RNI.....	178
Xolova Shahnoza Davronovna. FRAZEMA VA UNING TADQIQ ETILISH TARIXI.....	180
<b>3-sho'ba. Zamonaviy tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik: an'ana va innovatsiyalar.....</b>	<b>182</b>
Зоҳиджон Садиков. АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИ ОЛМОН ТИЛИДА.....	182
Д.З.Ражабов. ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИДА ПОЭТИК НУТҚ ИФОДАСИ.....	185
Adizova Obodon Istamovna. FOLKLORSHUNOSLIKNING JANRIY TARKIBI VA TIZIMI XUSUSIDA.....	188
Adizova Obodon Istamovna. L'ÉTUDE SYSTÉMATIQUE DES MOEURS ET DES COUTUMES ...	190
Karimova Dilafro'z Halimovna, Axmadova Xusnora Narzillo qizi. AKA-UKA GRIMM ERTAKLARINING YARATILISH TARIXI VA O'ZBEKCHA TARJIMALARI XUSUSIDA.....	194
Maxmudova Muattar Maxsatilloevna, Xayitova Mavjuda. Y.V.GYOTE "G'ARBU SHARQ" DEVONINING MAQSUD SHAYXZODA VA S.S.BUXORIY TARJIMALARIDAGI FARQLAR VA MUSHTARAKLIKLAR.....	196
Hayitova Mavjuda. S.S.BUXORIY IJODIDA SHARQU G'ARB MAVZUSI VA "MAG'RIBU MASHRIQ" DEVONI TARJIMASI HAQIDA.....	199
Babayev Otabek. ÜBERSETZUNGEN UND AUSGABEN VON JALOLIDDIN RUMIS WERKEN .	202
Babayev Otabek Abdikarimovich, Zokirov Jamshid Kholmat Ugli. The history of interpreting.....	204
Jumayev Akmal Axmatovich. QALDIRG'OCH OBRAZI O'ZBEK VA NEMIS XALQ ERTAK VA AFSONALARIDA.....	207
Jabbarova Maloxat Hamdamovna. ВЛИЯНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ ПИСАТЕЛЯ НА ИЗОБРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОГО ОБРАЗА.....	209
Babayev Otabek, Masterstudentin Anna Angelika Janning, Masterstudentin Anne Charlotte Blasel. FUNKTIONEN UND ROLLE DER LITERARISCHEN ÜBERSETZUNG IM 21. JAHRHUNDERT	212
Xudoyev Samandar Samatovich. O'ZBEK LATIFALARINING TARJIMA EVOLYUTSIYASI.....	218
Bozorova Muxabbat Abduraxmonovna. HAYNRIX HAYNE SHE'RLARI O'ZBEKCHA TARJIMASIDA SHARQONA OBRAZ VA MOTIVLAR IFODASI.....	220
Бозорова Мухаббат Абдурахмановна. ВЫРАЖЕНИЕ ВОСТОЧНЫХ ОБРАЗОВ В УЗБЕКСКОМ ПЕРЕВОДЕ СТИХОТВОРЕНИЙ ГЕНРИХА ХЕЙНА.....	222
Tolibjanov Bahromjon Maxmudxanovich. MARK TVEN YUMORISTIK ASARLARI TARJIMASIDA MUROJAAT SHAKLLARINING BERILISHI.....	224
Jumayeva Shahlo Shokirovna. MILLIY KOLORIT TERMINI, UNING ADABIYOTSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA UNING QAMROV DOIRASI.....	225
Babayev Maxmud Tashpulatovich, Bafojev Mirfayz Baxshilloevich. MADANIYATLARARO MULOQOTDA TARJIMANING O'RNI.....	227
Babayev Maxmud Tashpulatovich, Ashirova Rayhon Anvar qizi. ERTAKLAR VA BADIY ASARLARNI TARJIMA QILISH MAHORATI.....	229
Xurshida Hasanova. Fantaziya janridagi asarlarining ilmiy va nazariy qirralari.....	231
Xamdamov Oybek Abdulxayevich. "O'TKAN KUNLAR" ROMANI TARJIMALARI TADQIQI.....	233